

TILSHUNOSLIKNING BOSHQA FANLAR BILAN MUNOSABATLARI.TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Andijon davlat chet tillari instituti,

Talabasi:Nusrataliyeva Musharrafxon.

E-mail:nusrataliyevamusharrafm@gmail.com

Ilmiy rahbar:Xomidova Malohat

Anotatsiya: Tilshunoslik fanining rivojlanishi jarayonida u boshqa ko‘plab fanlar bilan uzviy aloqaga kirishgan. Ayniqsa, sotsiologiya, psixologiya, falsafa, informatika, adabiyotshunoslik kabi yo‘nalishlar bilan o‘zaro hamkorlik til tabiatini chuqurroq o‘rganish imkonini beradi. Bugungi kunda tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlar shakllangan bo‘lib, ular tilni o‘rganishda fanlararo yondashuvning dolzarbligini ko‘rsatadi. Ushbu yo‘nalishlar tilshunoslikka yangi metod va texnologiyalarni olib kirib, fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shmoqda.

Kalit so‘zlar: sotsiologiya,psixologiya,falsafa,informatika,psixolingvistika,
Neyrolingvistika.

Аннотация: В процессе развития лингвистическая наука вступила в тесный контакт со многими другими дисциплинами. В частности, сотрудничество с такими дисциплинами, как социология, психология, философия, информатика и литературоведение, позволяет глубже изучать природу языка. Сегодня в языкознании сформировались такие современные направления, как когнитивная лингвистика, психолингвистика, нейролингвистика, компьютерная лингвистика и корпусная лингвистика, которые демонстрируют актуальность междисциплинарного подхода к

изучению языка. Эти направления привносят в лингвистику новые методы и технологии и вносят значительный вклад в развитие науки.

Ключевые слова: социология, психология, философия, компьютерные науки, психолингвистика, нейролингвистика.

Abstract: In the process of development of linguistics, it has entered into close contact with many other disciplines. In particular, interaction with such areas as sociology, psychology, philosophy, computer science, and literary studies allows for a deeper study of the nature of language. Today, modern areas such as cognitive linguistics, psycholinguistics, neurolinguistics, computer linguistics, and corpus linguistics have been formed in linguistics, which demonstrate the relevance of an interdisciplinary approach to language study. These areas bring new methods and technologies to linguistics and make a significant contribution to the development of science.

Key words: sociology, psychology, philosophy, computer science, psycholinguistics, neurolinguistics.

Til asrlar mobaynida jamiyatga xizmat qiladi. Ularning ehtiyojlarini to'la-to'kis bajaradi. Til eng muhim fikr almashtirish quroli. Jamiyat tafakkurining rivojlanishini taminlovchi avlod-dan-avlodga madaniy-tarixiy an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi. Tilshunoslik tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tilning jamiyatdagi o'rnini ichki tuzilishi tilning tasnifi va uning tahlil qilish masalarini o'rganuvchi fanidir. Tilshunoslik-inson tilini o'rganadigan fan bo'lganligi sababli, rivojlanishi natijasida boshqa ko'plab fanlar bilan uzviy bog'lanib ketgan. Misol uchun tilshunoslik psixologiya, sotsiologiya, falsafa, informatika, adabiyotshunoslik, biologiya va nevrologiya fanlari bilan ham uzviy bog'liq.

Psixologiya bilan aloqasi: Tilshunoslik psixologiya bilan birgalikda insonning til orqali fikrlashi, tushunishi va eslab qolish jarayonlarini o'rganadi. Bu sohada psixolingvistika deb ataluvchi yo'nalish shakllangan.

2. Sotsiologiya bilan aloqasi: Jamiyatda tilning tutgan o'rni, ijtimoiy guruhlar orasidagi til farqlari, dialektlar, til o'zgarishlari sotsiolingvistika doirasida o'rganiladi.

3. Falsafa bilan aloqasi: Tilning mohiyati, til va tafakkur munosabati, tilning mavjudlikdagi o'rni kabi masalalar til falsafasi orqali o'rganiladi.

4. Informatika bilan aloqasi: Kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt, avtomatik tarjima, matn tahlili kabi yo'nalishlarda tilshunoslik informatika bilan birlashadi.

Adabiyotshunoslik bilan aloqasi: Til – adabiy asarlarning asosiy vositasi. Shuning uchun adabiy tahlil, uslub, ifoda vositalari kabi jihatlar tilshunoslik bilan bevosita bog'liq.

6. Biologiya va nevrologiya bilan aloqasi: Inson miyasi va nutq faoliyati o'rtasidagi aloqalar neyrolingvistika orqali o'rganiladi. Bu tibbiyot, nevrologiya va tilshunoslikning kesishgan nuqtasidir.

Shu bilan birga tilshunoslik bir nechta zamonaviy yo'nalishlarga ham ga hisoblanadi. ular quyidagilarni tashkil etadi: lingvopoetika, psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, mentolingvistika, nayrolingvistika, matematik lingvistika, kognativ lingvistika.

Lingvopoetika bu tilshunoslik va poetikaning tutashgan sohasi bo'lib, adabiy matnlardagi til vositalarining estetik va ma'naviy funksiyasini o'rganadi. Uning asosiy maqsadi — she'riy va badiiy asarlarda ishlatilgan til vositalarining shakl, mazmun, uslub va ta'sirchanlik xususiyatlarini tahlil qilishdir.

Psixolingvistika — bu tilshunoslik va psixologiya fanlari kesishgan yo'nalish bo'lib, insonning tilni qabul qilishi, tushunishi, eslab qolishi, ishlab chiqarishi va til orqali fikrlashi jarayonlarini o'rganadi.

Etnolingvistika — bu til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi fan boʻlib, til orqali xalqning milliy tafakkuri, qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashi qanday ifodalanganini tahlil qiladi.

Sotsiolingvistika — bu til va jamiyat oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi fan. U tilning ijtimoiy guruhlar, yosh, jins, kasb, va hududga qarab qanday oʻzgarishini tahlil qiladi.

Mentolingvistika — bu til va tafakkur (ong) oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi yoʻnalish boʻlib, inson aql-zakovati, bilimi, dunyoqarashi til orqali qanday ifodalanishini tahlil qiladi.

Neyrolingvistika — bu inson miyasi va til oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi fan. U nutq faoliyati qanday qilib miya tomonidan boshqarilishi, til markazlari qayerda joylashgani, va miya shikastida til qanday oʻzgarishi kabi masalalarni tahlil qiladi.

Matematik lingvistika — bu tabiiy tillarning tuzilishini matematik usullar, ayniqsa formal grammatikalar, mantiq va algebraik modellar yordamida oʻrganadigan yoʻnalishdir.

Kognitiv lingvistika — bu tilni inson tafakkuri va bilish jarayonlari bilan bogʻliq holda oʻrganadigan yoʻnalishdir.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak tilshunoslik inson omili va inson tafakkuri uchun sezilarli darajada taʼsir koʻrsata oladigan fandır Yuqorida aytib oʻtilganidek tilshunoslik bir nechta fanlar bilan ham uzviy bogʻliq sanaladi. Tilshunoslik biz bosghqa hech bir fanni tasavvur qila olmaymiz albatta. Hattoki tilshunoslik hech kimning hayoliga birzumda kelib qolmaydiga biologiya bilan ham chambarchas bogʻliq ekan. Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan bu fan hozirda biz oʻrganayotgan yangi yangi fanlarni hamma hammasini oʻz ichiga oladi.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

“Umumiy tilshunoslik” oʻquv qoʻllanma Toshkent “oltin kitob nashriyoti” 2022

Uz.wikipedia.org

“Tilshunoslik asoslari” O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘lanma TOSHKENT “IQTISOD-MOLIYA” 2007.

RENESSANS-EDU.UZ